SURXONDARYO VILOYATI BOYSUN TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 30-dekabr | 278-8-110-Q/25 | Boysun tuman hokimligi

Xalq deputatlari Boysun tuman Kengashining 2025-yil 25-avgustdagi VII-13-82-8-110-K/25-son “Boysun tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 27-dekabrdagi VII-2-014-8-110-K/24-son qaroriga o‘zgartishlar kiritish haqida”gi qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 148-moddasi hamda Boysun tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 19-noyabrdagi 204/5-03/102-sonli xatiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 148-moddasi hamda Boysun tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 19-noyabrdagi 204/5-03/102-sonli xatiga asosan xalq deputatlari Boysun tuman Kengashining 2025-yil 25-avgustdagi VII-13-82-8-110-K/25-sonli qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda mahalliy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlariga kiritilgan o‘zgartirishlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Boysun tuman hokimligi bosh hisobchisi (Sh.Toshboyev) ajratilgan mablag‘ning amaldagi qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda samarali va maqsadli sarflanishini ta’minlasin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari (Y.Xoliyorov) mazkur qarorning “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinishi hamda hokimlik rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Y.Jo‘rayev zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Tuman hokimi **B.Sh.Shukurov**

Boysun tumani hokimining
2025-yil 30-dekabrdagi
278-8-110-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda mahalliy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlariga kiritilgan o‘zgartirishlar

(ming.so‘mda)

T/r	Mablag‘ taqsimlovchilar nomi	Kiritilgan o‘zgartirishlar	
		Kamayish	Ko‘payish
1.	Tuman Xalq qabulxonasi	-395,0	
2.	Tuman Veterinariya va chorvachilik rivojlantirish bo‘limi	-2700	
3.	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	-9645,3	
4.	Tuman Oila va xoti-qizlar bo‘limi	-6818,7	
5.	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	-12894,0	
6.	Tuman hokimligi		32453,0
Jami		**32453,0**	**32453,0**